

**XXI ASR BOSHLARIDA KELIB ICHKI VA TASHQI OMILLAR
NATIJASIDA TURKIY TILLI DAVLATLAR O'RTASIDA BOSHLANGAN
INTEGRATSIYA JARAYONI INQIROZI VA SABABLARI**

Muzaffarov Muhammadaminxon Xysanxon o'g'li

ToshDSHU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8426364>

Annotatsiya

Sovet Ittifoqi parchalanishi va ikki qutbli dunyo tartibining yemirilishi bilan bu davlatlar bir-birlarini yaqinroq bilish va ko'p tomonlama munosabatlarnirivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Biroq, 70 yillik sotsialistik o'tmish ta'siri bilan bu mamlakatlarning aloqa kanallari, iqtisodiyoti, sanoati, transporti va ta'limi SSSRning mafkuraviy tushunchasiga muvofiq tuzilgan va ularni Rossiyaga qaram qilib qo'ygan. Shu bois 1990-yillarning boshlarida turkiyzabon davlatlarning integratsiya infratuzilmasi Turkiya va turkiy respublikalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri ikki tomonlama aloqa, transport, madaniyat va ta'lim, savdo va iqtisodiyot sohalarida aloqalarni rivojlantirishga urinishlar bilan boshlandi. Ammo 90-yillarning oxiriga kelib yuzaga chiqqan bir qancha ichki va tashqi omillar sabab, Turkiyaning faol say-harakatlari bilan boshlangan va turkiyzabon davlatlarni birlashtirish yo'lidagi Turkiy tilli davlatlar davlat rahbarlari sammitlari nomi ostida boshlangan ilk integratsiya yo'lidagi urinishlar va harakatlar to'xtatildi. Maqolada inqirozga olib kelgan sabablarni ochib berildi.

Kalit so'zlar: Integratsiya, Turkiy tilli davlatlar, Turkiya, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Rossiya, "yaqin atrof" siyosati, inqiroz.

Annotation

With the disintegration of the Soviet Union and the collapse of the bipolar world order, these countries had the opportunity to get to know each other better and develop multilateral relations. However, under the influence of the 70-year socialist past, the communication channels, economy, industry, transport and education of these countries were structured according to the ideological concept of the USSR and made them dependent on Russia. Therefore, in the early 1990s, the integration infrastructure of Turkic-speaking countries began with attempts to develop relations between Turkey and the Turkic republics in the fields of direct bilateral communication, transport, culture and education, trade and economy. However, due to a number of internal and external factors that emerged at the end of the 90s, the first efforts and efforts towards integration, which began with the active efforts of Turkey and began

under the name of the summits of the heads of state of the Turkic-speaking countries, were stopped. The article revealed the reasons that led to the crisis.

Keywords: Integration, Turkic-speaking countries, Turkey, Central Asia, Caucasus, Russia, "nearby" policy, crisis.

Turkiya 1990-yillarning dastlabki yillaridanoq yuzaga kelgan siyosiy jarayonlarda shoshqaloqlik bilan harakat qilib, endigina mustaqilligi qo'lga kiritgan boshqa turkiyzabon davlatlar bilan qisqa muddat ichida birlikka erishish hamda ular bilan yaqin aloqalarni yo'lga qo'ymoqchi bo'ldi. Bu borada turk integratsiyasiga qaratilgan rejali va oqilona tashqi siyosat olib borish o'rniga, mintaqadagi davlatlarga nisbatan qisqa muddatda turkiyzabon davlatlar o'rtasida mushtarak birlikka erishish mumkinligini ta'kidlagan holda qaysidir ma'noda to'satdan reaksiyalarni o'z ichiga olgan nostalgik va hissiy yondashuvga asoslangan siyosatni qo'lladi. Lekin Turkiya bu mintaqalarning asrlar davomida sovet mafkurasida bo'lganini, shuningdek sobiq ittifoq parchalangan bo'lsada uning davomchisi bo'lgan Rossiya ertami kechmi baribir bu mintaqalarga o'zining ta'sirini o'tkazishi uchun harakat qilishini e'tiborsiz qoldirdi. Turkiyaning bu mintaqaholisining turkiyzabon ekanligi hamda tarixan ildizlari bog'langanini asos qilgan holda turkiyzabon davlatlarni birlashtirish va endigina yuzaga kelgan bu mintaqada osonlikcha o'z o'rnini egallashga kirishgan edi. Bunday siyosat 1990-yillarning dastlabki yillarida Turkiyaning turkiyzabon davlatlarga nisbatan tashqi siyosatida jiddiy nomuvofiqlik va uzilishlar keltirib chiqardi¹. Buni biz mintaqalar o'rtasida aloqalar boshlan ilk kezlardananoq ko'rdik. Markaziy Osiyo turkiy davlatlari Turkiya tomonidan tayyorlangan deklaratsiyani imzolashni o'rinsiz deb topdilar. Qozog'istonning birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev "Asrlar chorrahasida" nomli asarida boshqa boshqa xalqlar va davlatlar bilan aloqalarni uzmasdan, Turkiya va boshqa turkiy tilli davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlash tashqi siyosat tamoyili bo'yicha Turkiya tayyorlangan birinchi deklaratsiyani imzolamaslik qarorini asos qilib qilib ko'rsatdi². Bu yerda boshqa xalqlar va davlatlar nazarda tutilgan narsa mamlakatda yashovchi rus ozchiliklari va Rossiya davlati bo'lishi mumkin. Ma'lumki, SSSR parchalanganda Qozog'istonda 6 millionga yaqin rus etnik ozchiliklari yashagan va ular mamlakat umumiy aholisining 40% dan ortig'ini tashkil qilgan. Ruslar tarixiy xotiralarida, Turkiya va turklarni hamisha boshqa xalq va mamlakatlar sifatida qabul qilingan. Shu sababdan rossiyalik akademik va ekspertlar Turkiyaning umumiy turkiyzabon davlatlarga, xususan

¹ Mehmet Seyfettin Erol-Yavuz Gürler, der., Türk Dünyası 20 Yıllığı: Tahliller, Değerlendirmeler, Öngörüler ve Özeleştiriler, Türksav Yayınları, Ankara 2011, s. 44.

² Nursulton Nazarboyev, Asrlar chorrahasida, Bilgi nashriyoti, Anqara 1997, b. 201.



Qozog'istonga nisbatan tashqi siyosatini panturkizm³ bilan belgilab, xurofotga asoslangan talqinni odatga aylantirdilar. Turkiyani boshqa o'zlik sifatida qabul qilishlari va Turkiyaning turk respublikalariga nisbatan siyosatini panturkizm bilan aniqlash orqali noto'g'ri tahlil qilishlari bugungi kunda ham Rossiya matbuot manbalarida, rossiyalik ekspert va akademik doiralarda davom etayotganini kuzatishimiz mumkin. Shuning uchun Qozog'iston 1990-yillar boshida Turk dunyosi vektorining mustahkam birlikka asoslangan holda kuchayishini o'z mamlakatidagi ruslar uchun va tabiiyki Rossiya uchun jiddiy noqulaylik tug'dirishi mumkinligini hisobga olgan holda o'zining tashqi siyosatidagi turk dunyosi vektorini shoshilmasdan va uni uzoq muddatli davrga yoyish orqali kuchaytirish mumkinligini hisobga bo'lishi mumkin. Anqara sammiti bilan yuzaga kelgan realistik manzara turkiyzabon davlatlar o'rtasidagi integratsiyani birdaniga yo'lga qo'yib bo'lmasligini va uzoq muddatli davrni o'z ichiga olgan mushtarak strategik qarorlar, rejali va oqilona siyosatlar bilan amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatdi⁴.

Sammitlar chog'ida O'zbekiston va Turkmanistonning turkiy tilli davlatlar Davlat rahbarlarining uchrashuvlari bo'yicha istiqbollari o'z ichiga olgan ma'ruzalari diqqatga sazovor bo'ldi. Islom Karimov 1994 yilda tashkil etilgan "Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati" tashkilotini alohida ta'kidlab, Turkmaniston va Tojikistonni hamjamiyatga a'zo bo'lishini taklif qildi. Islom Karimov Turkiyzabon davlatlar rahbarlari sammitlari orqali Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdan ko'ra, mintaqaviy darajada bir-birini yanada yaqinlashtiradigan Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati orqali iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashni taklif qildi. Shu bilan birga, agar sammitlarda siyosiy birlikka qaratilgan masalalar muhokama qilinsa, uning davlati sammit uchrashuvlarida qatnashmasligini ta'kidladi. Turkmaniston rahbari Saparmurod Niyozov sammitda ishtirok etayotgan boshqa davlat rahbarlariga turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi birlikni mustahkamlashga shoshilmasdan o'z faoliyatini amalga oshirishni taklif qildi. Saparmurod Niyozov tilning mushtarakligi umumiy siyosiy birlikni anglatmasligini, Turkiya bilan mintaqaviy integratsiya faoliyati Rossiya, Eron va MDHning boshqa davlatlari bilan yaqin hamkorlikda olib borilishi kerakligini ta'kidladi. Islom Karimovning Turkiyzabon Davlatlar davlat rahbarlari sammitiga qarashi o'zgarishi aslida o'sha davrdagi Turkiya-O'zbekiston

³ Uşakov, Tolkovii Slovar Russkogo Yazıka (Rus Dilinin Açıklayıcı Sözlüğü), Alta-Print Yayınları, Moskova 2005; Vadim Truhaçyov, "Panturkizm: Vekovaya Ugroza Rossiyi" (Pan Türkçülük: Rusya'nın Asırlık Tehdidi), Pravda.ru, 11 Aralık 2007, <http://www.pravda.ru/world/asia/centralasia>

⁴ Kasimjomart Tokayev, Pod Styagom Nezavisimosti: Oçerki O Vneşnei Politike Kazakhstana ,Bilim nashriyoti, Almata 1997, b . 500.



munosabatlaridagi keskinlikdan kelib chiqqan. Ma'lumki, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlardagi ilk keskinlik 1994 yilning bahorida sodir bo'lgan. Bu davrda Karimovga qarshi chiqqan va o'ziga jiddiy raqib sifatida ko'rgan Muhammad Solih Turkiyadan panohtopdi. O'zbekiston hukumati 1994-yil iyul oyida Turkiyaga Solihni O'zbekistonga ekstraditsiya qilish bo'yicha rasmiy ariza bilan murojaat qilgan, biroq Turkiyaning javobi salbiy bo'lgach, Islom Karimov o'zining Anqaradagi elchisini qaytarib oldi. 1994-yil 24-iyun kuni Karimov Anqaraga tashrif buyurdi va Solihni ekstraditsiya bo'yicha diplomatik muzokaralar olib bordi, lekin Turkiya tomoni uning ekstraditsiyasini qabul qilmadi. Biroq, Solihning Turkiyada siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmasligiga kafolat berildi⁵, shu tariqa O'zbekiston elchisining qaytishi mumkin edi. Solih 1994-yil oktabr oyida Turkiyani tark etib, Germaniyaga ko'chib o'tganidan so'ng Turkiya-O'zbekiston munosabatlari o'z o'rniga qaytdi. Shuningdek, navbatdagi sammitni 1996-yil sentabr-oktyabr oylarida Toshkentda o'tkazish to'g'risida kelishuvga erishildi.

1998-yilda Ostona sammitidan so'ng O'zbekiston va Turkmanistonning turkiyzabon davlatlar davlat rahbarlarining uchrashuvlariga qiziqishi pasayib, ular davlat rahbarlari maqomidagi sammitlarda ishtirok etmadi. Turkmanistonning turkiyzabon davlatlar davlat rahbarlari sammitlariga qiziqishining kamayishi uning e'lon qilgan betaraflik siyosatidan kelib chiqqan. Ma'lumki, 1995 yil 12 dekabrda Turkmanistonning doimiy betaraflik maqomi BMT Bosh Assambleyasining 50/80-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq tasdiqlangan. Shu bois Turkmaniston o'zining doimiy betaraflik maqomi tufayli umuman mintaqadagi turli integratsion harakatlardan, xususan Turkiy tilli davlatlar Davlat rahbarlari sammitidan uzoqlasha boshladi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Turkiy tilli davlatlar Davlat rahbarlari sammitiga doir siyosati O'zbekiston-Turkiya munosabatlariga qarab rivojlandi. O'zbekiston-Turkiya munosabatlari 1997 va 1999-yillarda Muhammad Solih tufayli yana keskinlashdi. Ma'lumki, Muhammad Solih Germaniyada ikki yil qolgach, 1996 yilda Najmiddin Erboqon bosh vazirligi davrida Turkiyaga qaytib, O'zbekistonni jiddiy bezovta qilgan edi. Keyingi davrda ikki davlat o'rtasidagi kelishmovchilik inqirozga aylanib, birinchidan, O'zbekiston tomoni turk ishbilarmonlarining o'z mamlakatiga sarmoya kiritishiga byurokratik to'siqlar yaratib, soliq qonunchiligini buzgan 21 turk shirkatining ishlash ruxsatnomalarini bekor qildi. Bundan tashqari, O'zbekiston hukumati Turkiyada o'qishni davom ettirayotgan 300 ga yaqin o'zbekistonlik

⁵ "Kerimov, Turkiye'de Muhalefet Istemiyor", Milliyet Gazetesi, 25 Haziran 1994, s. 1.



talabani chaqirib oldi⁶. 2001-yil 26-27-aprel kunlari Istanbulda turkiyzabon davlatlar davlat rahbarlarining 7-sammiti bo'lib o'tdi. Sammitda Turkmaniston Prezident darajasida, O'zbekiston esa parlament spikeri darajasida vakillik qildi. Boshqacha aytganda, O'zbekiston turkiyzabon davlatlar o'rtasidagi integratsiyadan uzoqlashishda davom etdi.

Shu tariqa 90-yillarning oxiriga kelib Turkiyaning boshqa turkiy tilli davlatlar bilan integratsiyaga kirishish hamda mustahkam birlik qurish yo'lidagi davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar sabab inqirozga yuz tuta boshladi. Turkiya va boshqa turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga sovuqchilik tushayotgan bir davrda Rossiyaning Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlaridagi siyosati qayta jonlana boshladi. Turkiya-Rossiya munosabatlarining 1990-yillarning o'rtalariga qadar umuman ijobiy yo'l tutganini, ayniqsa, sovuq urush davriga nisbatan ikki tomonlama munosabatlar sezilarli darajada yaxshilangan bo'lsada, bu davrdagi eng yaqqol salbiy tomoni, Turkiyaning Sovet Ittifoqi parchalanishidan keyin mustaqillikka erishgan Turk Jumhuriyatlari ustidan ta'sir o'rnatishga qaratilgan harakatlari Rossiyaning bezovta qilgani bo'ldi. Turkiyada vaqti-vaqti bilan Prezident va Bosh vazir kabi oliy darajadagi amaldorlarning so'zlari aylanib yuradi: "Adriatikadan Buyuk Xitoy devorigacha bo'lgan ulkan turk vatani" yoki "21-asr turk asri bo'ladi" degan bayonotlar aslida ko'p natija bermagan bo'lsada, Rossiya tomonidan xavotir bilan kuzatildi. Hatto 1992 yildagi Do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik shartnomasi ham Turkiyaning Sovet ta'sir doirasiga aralashish niyatida emasligini e'lon qilishi natijasida imzolanishi mumkin edi (Sönmezoğlu 2006: 692). Shunindan Rossiya birinchisi 1992 yil oktyabr oyida Istanbulda o'tkazilgan sammitlarining ikkinchisini 1994 yil yanvar oyida Ozarbayjonda rejalashtirilganidek o'tkazishga qarshi chiqdi va natijada bu sammit Istanbulda o'tkazildi.

1990-yillarning o'rtalariga kelib, ayniqsa, shu yillarning ikkinchi yarmida Turkiya-Rossiya munosabatlarida ba'zi muammolar paydo bo'la boshladi yoki mavjud muammolar yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Bular, birinchi navbatda, Rossiyada hokimiyat almashishi va u keltirib chiqargan mentalitetning o'zgarishi natijasidir. Sovuq urushdan so'ng darhol hokimiyatga kelgan g'arbparast islohotchilarning muvaffaqiyatsizlikka uchrangani, mamlakatning fuqarolar urushlari bilan larzaga kelgan betartiblik muhitiga tortilishi, davlat hokimiyatining jiddiy silkinishi va jilovsiz iqtisodiy inqirozlar kabi omillar hokimiyatga "yangi evrosiyochilar"ni olib keldi. Bu guruh hokimiyatni egallashi

⁶ S. Akmalov, "Turkiya-O'zbekiston munosabatlari: muammolar va kelajak", X. Chakmak-M. S. Erol, tahr., Turkiya-Turk respublikalari munosabatlari, tinchlik nashriyoti, Ankara 2013, p. 139-148.



bilan G'arbiga bo'lgan qiziqish pasayib, asosiy e'tibor Kavkaz va Janubiy Osiyo mintaqalariga qaratildi. Turkiyaning sobiq SSSR tarkibida bo'lgan Markaziy Osiyo va janubiy Kavkaz mintaqasida bunday serharakatligi mintaqadagi gegemonlardan biri Rassiyaning bu mintaqalarga nisbatan siyosatini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Turkiyaning mintaqadagi turkiyzabon davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga intilishi va integratsiyaga kirishuvi Rossiyani bezovta qila boshladi. Bu borada Rossiya hukumati 1991-yilning dekabr oyida sobiq SSSR ajralib chiqqan respublikarni Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi (MDH) shartnomasini tuzish orqali o'z atrofiga to'pladi. Aslini olganda, bu masalalar ikki asr davomida mintaqaning geosiyosiy va geoiqtisodiy jihatdan tashqi siyosat vektorini belgilab bergan Rossiyani jiddiy bezovta qilganini kuzatish mumkin. Shuningdek, Rossiya 1992-yil 15-mayda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari bilan "Kollektiv xavfsizlik shartnomasi"ni imzolash orqali turk respublikalarini ularning xavfsizligini ta'minlash sohasida o'ziga yaqinlashtirmoqchi bo'ldi⁷. Xuddi shunday, 1993-yil 23-aprelda Tashqi siyosat konsepsiyasini qabul qilib, o'zining tashqi siyosati bo'yicha Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkazdagi turkiy tilli davlatlarni o'z ichiga olgan yaqin atrofdagi mintaqada hayotiy manfaatlarga ega ekanligini e'lon qildi. Shunday qilib, o'zining sobiq mustamlaka hududlariga etibor bergan holda, O'rta Osiyo va Janubiy Kavkaz mamlakatlariga nisbatan tashqi siyosatini qayta ko'rib chiqdi⁸. Shu nuqtai nazardan, 1993 yil boshidan boshlab Rossiya tashqi siyosatida "Yaqin atrof-muhit" doktrinasini qabul qilindi. Shunga ko'ra, Rossiya xavfsizligi Rossiya Federatsiyasi chegaralaridan emas, balki sobiq Sovet Ittifoqi chegaralaridan boshlanadi. Xuddi shu ta'limot doirasida Kavkaz va Janubiy Osiyoga nisbatan Rossiya ushbu mintaqalardagi boshqa mamlakatlarga qaraganda iqtisodiy jihatdan ko'proq imtiyozlarga ega bo'lishi kerak degan nuqtai nazar qabul qilindi (Tuncer 1998: 445-471).

Rossiya "Yaqin atrof" doktrinasini hayotga tatbiq etish uchun Kavkaz va Janubiy Osiyodagi etnik mojarolardan foydalandi, bu nizolarga aralashdi va hatto ba'zi yangi to'qnashuvlarga turtki berdi. Bu doirada rus askarlari 1993 yildan boshlab Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon va boshqa ko'plab joylarga kirdi. Bu o'zgarishlar ayni mintaqadagi etnik va diniy aloqalaridan foydalanib,

⁷ Mehmet Seyfettin Erol-Aidarbek Amirbek, "Avrasya'da Yeni Tehditler ve Güvenlik Arayışları: Kolektif Güvenlik Anlaşması Örgütünün Geleceği", Mehmet Seyfettin Erol, der., Türk Dış Politikasında Strateji Arayışları: Türkiye'nin Güncel Güvenlik Sorunları, Ülkeler, Bölgeler, Örgütler, Barış Kitabevi Yayınları, Ankara 2011, s. 325-326

⁸ Rossiyalik akademiklar tomonidan yozilgan "Geosiyosat" nomli kitoblarni o'qiganda, ruslar idrokidagi bevosita muhit postsovet (sobiq SSSR) mamlakatlarini o'z ichiga olgan geografik o'lkalar bilan chegaralanganligi ko'rinadi. Qarang: Rashid Muhaev, Geopolitika, Yuniti Dana nashriyotlari, Moskva 2010, p. 3-5; Nikolay Nartov, Geopolitika (Geopolitik), Yuniti Dana nashrlari, Moskva 2002, s. 105-149.



ta'sir doirasini kengaytirmoqchi bo'lgan Turkiyani bezovta qildi. Ayni paytda Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin Rossiya bilan chegarasi bo'lmagan Turkiyaning mintaqada joylashtirilgan rus askarlari tufayli yana bu davlat bilan "chegara"ga aylangani ham Turkiya uchun xavfsizlik xavotirini yuzaga keltirdi.

1994-yil 18-19-oktabr kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida o'tkazilgan Turkiyzabon davlat rahbarlarining ikkinchi sammiti oldidan Rossiya Tashqi ishlar vazirligi matbuot kotibi "Turk tilida so'zlashuvchi davlatlar davlat rahbarlari" sammitidan xavotirda ekanligini ma'lum qildi va ishtirokchi davlatlarni panturkistik tuyg'ularga berilib ketmaslik kerakligini ta'kidladi. Turkiyaning o'sha paytdagi prezidenti Sulaymon Demirel Rossiyaning xavotirlarini inkor etib, o'z mamlakatida panturkistik yoki panislamistik maqsadlar yo'qligini, Markaziy Osiyoda ta'sirini rivojlantirish niyatida emasligini, balki birodar va do'st mamlakatlar ekanligini ta'kidlagan. Darhaqiqat, 1994-yil 21-oktabrda MDH sammitini tashkil qilish bilan Rossiya qaysidir ma'noda turkiyzabon davlatlar Davlat rahbarlari sammitidan o'zining bezovtaligini va mintaqaning MDH orqali o'zi uchun ajralmas ekanligini ko'rsatishga harakat qildi.

Turkiyzabon davlatlarning integratsiya infratuzilmasining mustahkamlanishidan bezovta bo'lgan Rossiya 1995-yil 20-yanvarda "Bojxona ittifoqi" nomi bilan o'z rahbarligida iqtisodiy integratsiya jarayonini boshlab yubordi⁹.

Bundan tashqari, Yangi yevroosiyochilar Turkiyaning dushman qo'shnisi Suriyaga qurol-yarog' yordami ko'rsatdi, 1995-yilda Turkiyaning janubiga zarba bera oladigan S300 raketalarini Gretsiyaga sotdi, Gretsiya bilan yaqin aloqada bo'ldi va Turkiya-Rossiya munosabatlaridagi o'zgarishlar Turkiyani bezovta qildi.

Bu davrda Rossiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati «Primakov doktrinasi» doirasida ham rivojlanin bordi. Ma'lumki, Evgeniy Primakov 1996-1998-yillarda tashqi ishlar vaziri, 1998-1999-yillarda esa Bosh vazir lavozimlarida ishlagan. U Rossiyani boshqargan davrida 1990-yillar boshida o'zining yaqin davralarda yo'qotgan obro'-e'tiborini qayta tiklashni maqsad qilgan edi, bu orqali o'z mamlakatining yaqin atrofiga nisbatan faol tashqi siyosat olib borishini ta'minlash va jahon siyosatida Evrosiyodagi Rossiya-Xitoy-Hindiston uchlik ittifoqi orqali Atlantika bloki (AQSh va uning ittifoqi) muvozanatini ta'minlash edi. Tabiiyki, bunday tashqi siyosat falsafasiga ega

⁹ Владимир Хвошев-Рамиль Муллаянов, Пограничная политика и безопасность, Юргу Паблицейшнс, Челябинск, 2001, с. 12.



Evgeniy Primakov Turkiyzabon Davlatlar davlat rahbarlari sammitiga ijobiy qaramagan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi iliq munosabatlar 1999 yilda qayta tiklandi. Chunki 1996-yil sentabr oyida Tolibonning Kobulni egallab olishi va buning Markaziy Osiyo barqarorligiga putur yetkazishi mumkinligidan xavotirlanishi mintaqa davlatlarini Rossiya bilan birgalikda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdid va xavf-xatarlarga qarshi umumiy harakatlarga (ayniqsa, xavfsizlik masalalari bo'yicha) undadi. Darhaqiqat, 1999 yilning kuz oylarida "Tolibon" harakati bilan "O'zbekiston Islomiy Harakati" o'rtasida hamkorlik kuchayib, har ikki tashkilot a'zolari Tojikiston orqali Qirg'izistonning Botken viloyatiga borib, Farg'ona vodiysi janubida o'z harakatlarini faollashtirdi. Bu holat Markaziy Osiyo davlatlarida xavfsizlik bilan bog'liq xavotirlarga sabab bo'ldi. Xuddi shunday, 1999-yil 7-avgustdan 11-sentabrgacha bo'lgan davrda diniy radikal tashkilotlar Shimoliy Kavkazda faol harakatlarni amalga oshirib, Rossiyaning milliy xavfsizlik sohasiga ko'proq e'tibor qaratishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, diniy radikal guruhlar 1999-yil 16-fevralda O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrida olti xil joyda portlashlar uyushtirib, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi xavfsizlik sohasida hamkorlikni chuqurlashtirdi. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoda diniy radikal guruhlar faoliyatining jonlanishi va ularning mintaqa davlatlarining dunyoviy tuzumlariga tahdid solayotgani Rossiyaning mintaqaga nisbatan siyosatini faollashtirdi va Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik sohasida Rossiya bilan hamkorlikda yanada chuqurroq hamkorlik qilish imkoniyatini yaratdi.

Shuningdek, Rossiya 2000-yil 10-oktabrda Bojxona ittifoqi negizida "Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini"¹⁰ tuzadi. 2015-yil 1-yanvarda esa iqtisodiy integratsiyani mustahkamlovchi "Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi"ni tuzadi va 2014-yil 10-oktabrda "Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati"ni tugatdi. Rossiya yetakchiligida tashkil etilgan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi yaqin atrofdagi mamlakatlarni Rossiya bilan yanada bog'lashi va, xususan, o'zidan mustaqil integratsion harakatlarning kuchayishiga yo'l qo'ymasligi mumkin bo'ldi. Sammitlar nima uchun uzilib qolgani haqidagi savolga ekspertlar tomonidan turli mulohazalar bildirildi. Shunga ko'ra, ba'zi turk va rossiyalik ekspertlar sammitlarning to'xtab qolishi sabablarini Turkiyada bu davrda yuz bergan ichki

¹⁰ Aidarbek Amirbek-Almasbek Anuarbekuli, "Rossiyaning yangi integratsiya yondashuvida 'Yevroosiyo ittifoqi: Turk dunyosiga mumkin bo'lgan ta'sirlar va takliflar", Yeni Turkiya jurnali, soni: 53, Turk dunyosi maxsus soni 1, 2013, bet. 985-991.



beqarorlik va 2001-yildagi iqtisodiy inqiroz bilan izohladi¹¹ va davrning hukmron ma'murlari tashqi siyosatda O'rta Sharq e'tibor qaratildi. Ammo bu tanaffus davrida Rossiyaning umuman yaqin atrofdagi siyosati, xususan, Markaziy Osiyo siyosati faollashdi. Ma'lumki, Vladimir Putin 2000 yil 1 yanvarda Rossiyaning millatchi va yosh prezidenti sifatida hokimiyat tepasiga kelgan. Putinning umumiy yaqin atrof-muhit va xususan Markaziy Osiyo kontekstidagi birinchi qadami mintaqaga nisbatan siyosatni institutsionalizatsiya qilish edi.

2000 yildan e'tiboran Rossiyada Vladimir Putinning hokimiyat tepasiga kelishi, garchi ularning asosiy falsafasida hech qanday o'zgarish bo'lmagan bo'lsada, yangi yevroosiyochilarning tashqi siyosatidagi uslubini o'zgartirishga olib keldi. Putin hokimiyatga kelganida kuchini yo'qotgan etnik nizolar o'rniga uning atrofidagi davlatlarga iqtisodiy ta'siridan foydalanib, Rossiya ta'sirini saqlab qolishga harakat qildi. Sobiq Ittifoq davlatlarining iqtisodiy infratuzilmasi yarim asrdan beri ko'p sohalarda, ba'zilarida esa undan ham uzoqroqda Rossiyaga qaram bo'lganligi sababli, bu siyosat unchalik qiyinchilik tug'dirmadi. Shu nuqtai nazardan, 2000-yilda Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston ishtirokida Yevroosiy o'zbekiston ham ushbu jamoaga qo'shildi.

Shunday qilib, 2000-yil 10-yanvarda Milliy xavfsizlik konsepsiyasini, 2000-yil 21-aprelda Harbiy doktrinani qabul qildi. Qabul qilingan doktrina va konsepsiya Putinning 2008 yilgacha mintaqaga nisbatan siyosatining yo'l xaritasini shakllantirdi va tashqi siyosatdagi asosiy ustuvorlik yaqin atrofdagi mintaqaga, jumladan, Markaziy Osiyo ekanligini e'lon qildi. Shunday qilib, MDH tashkilotidan tashqari, Markaziy Osiyoni Rossiya bilan iqtisodiy jihatdan bog'lay oladigan yangi tashkilotning poydevori qo'yildi. Kaspiy quvurlari konsorsiumi 2001-yil 26-martda rasman ochilgan. Ushbu quvurning foydalanishga topshirilishi Rossiya uchun katta geosiyosiy va geoiqtisodiy muvaffaqiyat bo'ldi va Rossiya va Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada rivojlanishiga olib keldi. Sobiq sovet davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashga harakat qilayotgan Rossiya, Ozarbayjon neftini Turkiya orqali G'arb bozorlariga o'tkazish rejalashtirilayotgan Baku-Tifl-Jayhon neft quvurining tashkil etilishiga ham keskin qarshi chiqdi. Shu bilan bir qatorda, Qora dengiz sohilidagi Novorossisk portidan yuklanadigan kemalar Turkiya bo'g'ozlaridan o'tib, G'arb bozorlariga yetib borishi kerak degan fikrni ilgari surdi. Biroq bu yo'nalishda Ozarbayjon, Gruziya va Turkiyaga qo'llashga uringan bosimlari

¹¹ E. Paruboçaya, "Sammiti Tiyurkskih Gosudarstv (1992-2001 gg.): Realnaya Platforma Dliya Sblieniya?" (Türk Devletleri Zirveleri (1992-2001 yılları): Yakınlaşmaları İçin Gerçek Bir Platform Olabilir mi?), *Vestnik Volgogradskogo Gosudarstvennogo Universiteta* (Volgograd Devlet Üniversitesi Dergisi), Cilt: 1 Sayı:19, 2011, s. 118-119.



muvaffaqiyatsizlikka uchragan va Turkiya turli sabablarga ko'ra katta ahamiyat bergan bu neft quvurining 2005 yilda foydalanishga topshirilishiga to'sqinlik qila olmadi.

Boshqa tomondan, Vladimir Putin 2000-yil 7-mayda rasman Prezident lavozimiga kirishganida, uning birinchi maqsadi mamlakat boshqaruvining barcha tetiklarini o'z qo'lida bog'lab, Rossiyani tartibga solish bo'lishi mumkin. Biroq, bu maqsad bilan Rossiya yanada kuchli, mustaqil davlatga aylanishi va uning yaqin atrofdagi ta'sirini kuchaytirishi mumkin deb o'ylangan bo'lishi mumkin. Ya'ni, o'lkada oligarxiyalar ustidan davlat hokimiyatini kuchaytirish orqali o'sha davrdagi rus hukmdorlari kelajakda yaqin atrof-muhitga, xususan, O'rta Osiyoga kengroq ochilish imkonini beradigan faol tashqi siyosatga asos soldilar¹². Darhaqiqat, 2002 yil 7 oktyabrda Rossiya boshchiligida Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkilotining (KXShT) ta'sis va huquqiy maqomi to'g'risidagi shartnoma imzolangan. Shunday qilib, 1992-yil 15-mayda Toshkentda imzolangan Kollektiv xavfsizlik shartnomasi institutsionallashtirildi va Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik masalalari bo'yicha Rossiya bilan yanada samarali munosabatlarga yaqinlashdi.

Oxirgi bor Istanbul sammitida Ashxobodda o'tkazilishiga qaror qilingan navbatdagi 8-sammit amalga oshmadi. Shu tariqa 2001-2006 yillarda Turkiy tilli davlatlar Davlat rahbarlarining sammitlari to'xtatildi hamda Rossiyaning Markaziy Osiyo va janubiy Kavkaz mintaqa davlatlari bilan aloqalari yanada ortib bordi¹³.

Xulosa

90-yillar boshida katta maqsadlar bilan boshlangan turkiyzabon davlatlar o'rtasida boshlangan integratsiya jarrayonini bir qancha sabablarga kora inqirozga yuz tutganini ko'rdik. Mustaqilligini qo'lga kiritgan Markaziy Osiyo va Kavkazdagi turkiy davlatlar rivojlanishning turli yo'llarini tanladilar. Dastlab Turkiyaning O'zbekiston bilan so'ngra boshqa turkiy davlatlar bilan boshlangan kelishmovchiliklar bu davlatlarni bir biridan uzoqlashtira boshladi. Shuningdek turkiyzabon davlatlarning bir biriga yaqin bo'lishi mintaqadagi boshqa gegemon davlatlarning e'tiborini torta boshladi va bunga qarshilik qilish yo'llarini izlay boshladi. Bu davrga kelib Rossiyaning aktivlashgan "yaqin atrof" siyosati Turkiya va boshqa turkiy tilli davlatlarni bir biridan uzoq tutishga Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlarida Rossiyaning mavqeyini oshishiga sabab

¹² Mehmet Seyfettin Erol, "Batı'nın İki Ötekisi ve Avrasya'da Yeni Denklem Arayışları", Türk Yurdu, Cilt: 33, Sayı: 305, 2013, s. 11-12.

¹³ Mehmet Seyfettin Erol, "Küresel Güç Mücadelesinde Avrasya Jeopolitiği ve Türk Avrasyası", M. S. Erol, der., Yeni Büyük Oyun: Küresel Güç Mücadelesinde Avrasya'nın Değişen Jeopolitiği, Barış Platin Yayınları, Ankara 2009, s. 20-22.



bo'ldi. Shu tariqa ilk integratsiya yo'lidagi harakatlar muvaffaqiyatsizkka uchradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mehmet Seyfettin Erol, "20. Yıldönümünde Türkiye-Türk Dünyası: Sorunlar, Arayışlar ve Gelecek", Mehmet Seyfettin Erol-Yavuz Gürler, der., Türk Dünyası 20 Yıllığı: Tahliller, Değerlendirmeler, Öngörüler ve Özeleştiriler, Türksav Yayınları, Ankara 2011,
2. Mehmet Seyfettin Erol, "AB ve Türkiye'nin Avrasya Politikası", Z. Dağı, der., AK Partili Yıllar, Orion Yayınları, Ankara 2006
3. Mehmet Seyfettin Erol-Yavuz Gürler, der., Türk Dünyası 20 Yıllığı: Tahliller, Değerlendirmeler, Öngörüler ve Özeleştiriler, Türksav Yayınları, Ankara 2011
4. Владимир Хвошев-Рамиль Муллаянов, Пограничная политика и безопасность, Юргу Паблицейшнс, Челябинск, 2001
5. S. Akmalov, "Turkiya-O'zbekiston munosabatlari: muammolar va kelajak", X. Chakmak-M. S. Erol, tahr., Turkiya-Turk respublikalari munosabatlari, tinchlik nashriyoti, Ankara 2013
6. Nursulton Nazarboyev, Asrlar chorrahasida, Bilgi nashriyoti, Anqara 1997
7. Uşakov, Tolkovi Slovar Russkogo Yazıka (Rus Dilinin Açıklayıcı Sözlüğü), Alta-Print Yayınları, Moskova 2005; Vadim Truhaçyov, "Panturkizm: Vekovaya Ugroza Rossiyi" (Pan Türkçülük: Rusya'nın Asırlık Tehdidi), Pravda.ru, 11 Aralık 2007
8. Kasımjomart Tokayev, Pod Styagom Nezavisimosti: Oçerki O Vneşnei Politike Kazakhstana ,Bilim nashriyoti, Almata 1997
9. "Kerimov, Türkiye'de Muhalefet İstemiyor", Milliyet Gazetesi, 25 Haziran 1994